

Date: 9<sup>th</sup> March-2025

YOZGI TA'TILDA BOLALAR BILAN BO'SH VAQTNI OILAVIY TASHKIL  
ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AFZALLIKLARI

Bahromova Shohida Rafiqovna

Toshkent viloyati, Zangiota tumani, 6-umumta'lim maktabining 1-toifali  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'til vaqti bolalarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish bo'yicha oilaviy mashg'ulotlar olib borishning pedagogik-psixologik afzalliklari va ota-onalar uchun farzandi bilan bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda yuzasidan tavsiyalar keltirib o'tiladi.

**Аннотация:** В данной статье приводятся педагогические и психологические преимущества проведения семейных мероприятий по эффективной организации свободного времени детей в период каникул и рекомендации родителям по содержательной организации свободного времени с детьми.

**Annotatsion:** This article presents the pedagogical and psychological benefits of holding family events to effectively organize children's free time during the holidays and recommendations for parents on the meaningful organization of free time with children.

Oilada vaqt o'tkazish yoqimli va eng mazmunli onlarni, ota-onalar uchun yorqin taassurotlarni baxsh etadi. Yoz fasli kelib, bolalar ta'tilga chiqqach esa onalarning asosiy vaqti nafaqat uy va xo'jalik ishlari bilan, balki bolalar bilan o'tkazishga to'g'ri keladi. Yozning uch oyi ham televizor yoki kompyuter qarshisida o'tkazilmasligi uchun bolalarning bo'sh vaqtini qanday tashkil qilish kerak? Axir, ta'tilni nafaqat bola uchun qulay va foydali, balki butun oila uchun yoqimli qilish zarur. Albatta, bolalar bilan unumli vaqt o'tkazishda onalarga kreativ g'oyalar hamda psixologik, pedagogic tavsiyalar muhim.

Bolalar bilan dam olishni rejalashtirish: **nimaga e'tibor berish kerak?**

1. Faoliyatni tanlashda, bolangizni rejalarni muhokama qilishga jalb qilishni unutmang – uning ta'tildagi umidlari va ijobiy tajribasi bundan faqat ortadi.

2. Dam olishni tashkil qilishda bolaning sevimli mashg'ulotlari va qiziqishlarini hisobga oling. Yozgi ta'tilni tashkil qilish uchun ideal variant: bola uchun oilaviy bayramlar tashkillashtirishdir.

3. Bir hil kun tartibi sabab bolalar tezda zerikib qolishadi. Safarlar, o'yin-kulgilar, ekskursiyalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish uchun vaqtingizni rejalashtirishga harakat qiling.

4. Bolaning faol yoki passiv dam olish turlarini afzal ko'rishiga e'tibor bering.

5. Yoz – yangi, foydali ko'nikmalarga ega bo'lish vaqti. Ta'til vaqtida bolangiz bilan birgalikdagi turli ishlarni rejalashtiring. Bu farzandingiz bilan muloqot va o'zaro tushunish hissini oshirishga hissa qo'shadi, shuningdek, bola yoshi va imkoniyatidan kelib chiqib, uni uy ishlarida yordamlashishi uchun rag'batlantiring. Shu o'rinda savol tug'iladi,

**farzandingiz bilan uyda nima qilish kerak?**



Date: 9<sup>th</sup> March-2025



**Birinchidan**, uy bog'ini yoki tuvakda gullar parvarishini yarating. Farzandingiz bilan o'simlik urug'lari, gullar, ko'katlar, rayhon va boshqa shu kabi beziyon o'simliklar ekib, parvarishlashga o'rgating. Bola o'simliklar hayotidagi o'zgarishlarni kuzatadi va ularga qanday g'amxo'rlik qilishni o'rganadi. O'simliklarni sug'orish, parvarishlash qanchalik muhimligini ayting, lekin suv quyish me'yorlarini tushuntirishni ham unutmang.

**Ikkinchidan**, kulgili va quvnoq she'r, maqol va topishmoqlarni o'rgating. Bu bolalar uchun ajoyib tafakkur va xotira mashqi, shuningdek, qiziqarli mashg'ulot hamdir.

Masalan:

Mendirman o'sha tulki, bo'lganman juda kulgi.

Tovuq-xo'roz o'g'risi, ayyordirman to'g'risi.

Bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirish uchun biron harfdan navbatma-navbat so'z aytish, turli tez aytishlar o'rgatish va topishmoqlar berish ham foydali. Shu bilan birga turli hikoya va rivoyatlar, hadislar aytib berish, birgalikda mazmunini tahlil qilish ham bolalarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Uchinchidan**, rangli qalamlarni sotib oling va bolangiz bilan birgalikda rasm chizing. Bolalar ota-onalari bilan birgalikda mashg'ulotlar bajarishni juda yaxshi ko'ishlarini unutmang.

**To'rtinchidan**, birgalikda varrak yasang va uchiring. Bolalarga osmonda uchayotgan varrakni tomosha qilish zavq bag'ishlaydi.

**Beshinchidan**, farzandingiz uchun kartondan uy yasang. Siz uni o'zingiz qurishingiz yoki tayyorini sotib olishingiz mumkin. Uy devorlariga esa yil davomida o'rgangan harf va darslarini yozib chiqing. Bu orqali bola o'tilganlarni takrorlaydi va uning uchun ajoyib o'yin-kulguli takrorlash bo'ladi.

**Oltinchidan**, farzandingizni ko'ngilochar bog'lar yoki hayvonot bog'iga olib boring. Siz butun kunni bunday joylarda o'tkazishingiz va uyingizga ko'plab taassurotlar olib kelishingiz mumkin. Farzandingiz uchun esa bu unitilmas onlarni tuhfa qiladi.

**Yettinchidan**, farzandingiz o'qiyotganda vaqtingiz bo'lmagan bolalar tomoshalari, ko'rgazmalari va muzeylariga tashrif buyuring. Bunday tadbirlar uchun chiptalarni oldinroqdan xarid qilib qo'yganingiz maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida ota-onalar uchun ta'tilni bolalar bilan birga o'tkazishda quyidagi **asosiy tavsiyalarni** keltirib o'tamiz:

- O'zingiz va farzandlaringiz uchun kun tartibi tuzing. Bunda albatta ertalabki uyg'onish, badantarbiya bilan shug'ullanishdan, uxlagungacha bo'lgan vaqtni qamrab olishi kerak.

- hafta oxirida farzandingiz uchun bajariladigan uy vazifalari ro'yxatini tuzing, siz unga ota-onasiga yordam berganligi uchun o'ziga xos "mukofot" yozishingiz yoki ramziy sovg'a bilan taqdirlashingiz mumkin.

Asosiysi, doimo yangi bilim va kashfiyotlar bilan tanishish uchun butun oilangiz bilan borishga harakat qiling!

Date: 9<sup>th</sup> March-2025

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Askarova, N. (2019). Oila va ta'lim: Bolalar rivojida oilaning roli. Ta'lim va tarbiya, 3(2), 45-52.
2. Ismoilova, D. (2020). Yozgi ta'til va bolalar: Oila ichidagi bo'sh vaqtni tashkil etish usullari. Pedagogika va psixologiya, 5(4), 67-72.
3. Safarov, B. (2021). Sog'lom bolalar tarbiyasi: Oila va jamiyat. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
4. Qodirova, T. (2018). Bolalar va oila: Pedagogik va psixologik aspektlar. Maktab va oilaviy ta'lim, 2(1), 33-38.
5. Mamatqodirova, K. (2022). Oila a'zolari o'rtasida kommunikatsiya va uning bolalar psixologiyasiga ta'siri. Psixologiya va jamiyat, 6(3), 12-19.
6. Ruzimatova, S. (2023). Ta'til davrida bolalar uchun innovatsion o'yinlar va faoliyatlar. Ta'lim tizimida yangi g'oyalar, 4(2), 54-60.
7. Karimov, A. (2017). Ta'lim va tarbiya jarayonida oilaning o'rni. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi materiallari.
8. Tursunov, R. (2023). Pedagogik psixologiya: Bolalar va oila. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
9. Sidiqov, E. (2020). Yozgi ta'til va bolalar faoliyati: Nazariy hamda amaliy jihatlar. Ta'lim me'yorlari, 1(3), 25-30.
10. Axmedova, M. (2019). Oila va bolalar: O'zaro munosabatlar va ta'sirlari. O'zbekiston pedagogik jurnali, 2(2), 80-85.

